

**MILLIY TARBIYA TIZIMI VA REGGIO EMILIA YONDASHUVIDA BOLANING  
IJODIY FAOLIYATI: MADANIY QADRIYATLAR, TA'LIM MUHITI VA PEDAGOGIK  
AMALIYOTLAR ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL**

**Zuparova Dilnoza Dadaxonovna**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti  
“Pedagogika va psixologiya” pedagogika  
fanlari falsafa doktori (PhD) kafedrası  
dotsenti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek an'anaviy tarbiya tizimi va Reggio Emilia yondashuvini qiyosiy tahlil qiladi. O'zbek tarbiyasi — *kattaga hurmat, kichiklarga izzat, bola odobi, oila markaziyliigi, mahalla instituti, mehnat tarbiyasi va an'anaviy ijtimoiylashuv* kabi qadriyatlarga tayangan holda bola shaxsini ijtimoiy-axloqiy asosda shakllantiradi. Reggio yondashuvi bolani ijodkor subekt sifatida ko'rib, uning “yuz til” orqali o'rganish va izlanish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqot har bir komponent bo'yicha O'zbekiston modeli → Reggio modeli → qiyosiy xulosani beradi va ikki yondashuvni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini asoslaydi. Natijada O'zbekiston sharoiti uchun madaniy moslashgan gibridd ta'lim modeli taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *milliy tarbiya; mahalla; bola odobi; izzat-hurmat; mehnat tarbiyasi; marosimiy ijtimoiylashuv; Reggio Emilia; bola shaxsi; fassilitatsiya; ta'lim muhiti; uchinchi o'qituvchi; SEL; kuzatish; hujjatlashtirish.*

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the Uzbek traditional upbringing system and the Reggio Emilia approach. The Uzbek model develops child agency within moral–social frameworks such as *respect for elders, respect for the young, child etiquette, mahalla-based socialisation, labour upbringing and ritual practices*. Reggio Emilia positions the child as a creative protagonist who learns through multiple expressive “hundred languages” supported by a facilitating teacher and a responsive learning environment. Each analytical section is structured as: Uzbek model, Reggio model, comparative conclusion. The study identifies strong compatibility between the two systems and proposes a culturally grounded hybrid ECE framework for Uzbekistan.

**Keywords:** *National upbringing; mahalla; child etiquette; respect norms; Reggio Emilia; agency; facilitation; learning environment; documentation; SEL; rituals; labour upbringing.*

**Annotatsiya:** В статье проводится сравнительный анализ узбекской традиционной системы воспитания и подхода Реджо Эмилия. Узбекская модель формирует агентность ребёнка через нравственно-социальные категории: *почитание старших, уважение к младшим, детский этикет, социализация через махаллю, трудовое воспитание и ритуалы*. Подход Реджо рассматривает ребёнка как творческого субъекта, использующего «сто языков» выражения при поддержке фасилитатора и среды. Каждая часть включает: национальную модель, модель Реджо, сравнительный вывод. Делается вывод о возможной интеграции двух систем в гибридную культурно адаптированную модель.

**Ключевые слова:** *национальное воспитание; махалля; детский этикет; уважение; Реджо Эмилия; фасилитация; среда обучения; SEL; документация; ритуалы; трудовое воспитание.*

Yurtimizda asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy tarbiya o'zida go'zal urf-odatlarimiz, an'analar va qadriyatlarimizni 'aks etgan holda farzandlarimizni jamiyatga moslashgan, axloqan yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Milliy tarbiyaning asosini asosini *kattaga hurmat, kichiklarga izzat, odob-axloq, mahalla institutining tarbiyaviy kuchi, an'anaviy ijtimoiylashuv, mehnat va jamoaviy qadriyatlar* tashkil etadi [18;19;20;21]. Bu qadriyatlar bola shaxsini ijtimoiy meyorlar orqali boshqaradi. Reggio Emilia yondashuvi bolani "yuz tilga ega ijodkor shaxs" sifatida talqin qiladi [1]. Bu modelda pedagog fassilitator bo'lib, bolani kuzatadi, uning fikriga quloq soladi va muhitni bola tadqiq etishi uchun qulay tarzda tashkil qiladi [2;3]. Ta'lim muhiti — "uchinchi pedagog" sifatida — bolaning o'rganishiga xizmat qiluvchi asosiy omildir [4;5]. Ushbu tadqiqot qiyosiy tahliliy yondashuvi asosida amalga oshirildi. Milliy tarbiya yuzasidan Avloniy[18], Fitrat[19], Qodirov[20], Sharipova[22], Azimova[23], Sultonov[21] va Boymurodova [25] kabi manbalarda ayni masalaga e'tibor qaratilgan. Reggio Emilia bo'yicha esa Edwards, Gandini & Forman[1], Rinaldi [2], Vecchi[3], Malaguzzi[4] va Fabbi [9–13] tadqiqotlari asos qilib olindi. Tahlil bola shaxsi va odobi, fassilitatsiya va ustoz-shogirdlik, ta'lim muhiti va mahalla instituti, o'yin, hunarmandchilik va materiallar, ijtimoiy-hissiy rivojlanish (SEL), kuzatish va hujjatlashtirish kabi pedagogik komponentlar doirasida olib borildi

**Bolaning ijodiy faoliyati va odobi.** O'zbek milliy tarbiyasida bola shaxsi *kattaga hurmat, kichiklarga izzat, odoblilik, jamoaga moslashuv* kabi axloqiy meyorlarga asoslanadi. Bu ijodiy faoliyat ijtimoiy-axloqiy nazorat orqali shakllanadi [18;19;20]. Bola avtonom emas, balki "jamiyat ichida shakllanuvchi subekt" sifatida qaraladi. Reggio Emilia yondashuvi bolani mustaqil faoliyat yurituvchi, ijodkor va tadqiqotchi subekt sifatida talqin qiladi [1;4]. Bola tashabbus ko'rsatadi, savol beradi, fikr yaratadi va tajriba dizayneriga aylanadi. O'zbek modelida agentlik — axloqiy; Reggioda agentlik — ijodiy. Ularni integratsiya qilish bola shaxsiyatini barqaror va ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Fassilitatsiya va ustoz-shogirdlik an'analari.** Ustoz-shogirdlik tizimi ko'p asrlar davomida shakllangan. Ustoz — bilim egasi, ma'naviy yetakchi, tarbiya namunasidir [19;22]. Munosabatlar vertikal: ustoz boshqaradi, shogird izzat qiladi. Reggio pedagogi — fassilitator, kuzatuvchi va hamkoridir [2;9;10,11,13]. U rahbar emas, balki jarayonni qo'llab-quvvatlovchi shaxsdir. Bunda savollar berish, jarayonni qayta talqin qilish va dialog qurish muhim o'rinda. O'zbek modeli — axloqiy ustozlikdir. Bunda ustoz shaxsiy namuna ko'rsatish orqali tarbiya beradi. Reggio yondashuvi — pedagogik hamkorlikdir. Har ikki yondashuvni umimlashtirganda ustoz — ham madaniy yo'l boshchi, ham fassilitator sifatida yangi rolga ega bo'lishi mumkin.

**Ta'lim muhiti va mahalla instituti.** Mahalla bolani tabiatdan ajralmagan ijtimoiy muhitga joylashtiradi. Unda bola ijtimoiylashadi, jamoaviy qadriyatlarni o'rganadi, kattalar bilan muloqot qiladi [21;25]. Muhit — tarbiya beruvchi ijtimoiy institut. Reggio muhiti — "uchinchi pedagog" [3]. Unda estetik, tabiiylik, ochiq materiallar, yorug'lik va makon tashkiloti bola o'rganishini kuchaytiradi [3;4;5]. Mahalla — ijtimoiy muhit bo'lsa Reggio muhiti — didaktik muhitdir. Ularning integratsiyasi O'zbekiston maktabgacha ta'limida estetik, funksional va ijtimoiy jihatdan boy makonlar yaratishga asos bo'lishi mumkin.

**O'yin, hunarmandchilik.** Bolalarda mehnat, hunarmandchilik, amaliy faoliyat juda erta shakllanadi: kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik, hasharda ishtirok, dala-mehnat tajribasi [20;23]. Bu jarayon sensor, ijtimoiy va mehnat madaniyatini rivojlantiradi. Reggio yondashuvi ochiq materiallar, tabiiy resurslar, qayta ishlanadigan predmetlar orqali ijodiy o'yin va tadqiqotni rag'batlantiradi [1;3;5]. Milliy halq amaliy bezak san'ati va hunarmandchilik Reggiodagi *atelier*

konsepsiyasiga juda mos keladi. Ikkinchi yondashuv birinchini boyitadi: o'zbek materiallari + Reggio estetika — o'ziga hos, milliy elementlardan tarkib topgan kreativ muhit yaratishi mumkin.

**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish (SEL).** SEL an'anaviy ravishda urf-odatlar, jamoaviy tajribalar, oilaviy ierarxiya, kattaga hurmat, o'zini tutish meyorlari orqali shakllanadi [18;21;23;24]. Bola his-tuyg'ularini tartib bilan boshqarishni ijtimoiy kontekstda o'rganadi. Reggio SELni bolalarning birgalikdagi o'yinlari, muloqot, kelishuv, fikr almashish jarayonida shakllantiradi [6;7]. Pedagog — hissiy muhitni boshqaruvchi hamkordir. O'zbek milliy ijtimoiy muhiti — madaniy ijtimoiy-emotsional o'rganish muhitidir, Reggio yondashuvi — konstruktiv SEL sifatida namoyon bo'ladi. Birgalikda ular bolalarda kuchli emotsional savodxonlikni yaratishi mumkin.

**Kuzatish va hujjatlashtirish** Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog kuzatishga katta e'tibor beriladi, ammo bu jarayon rasmiy shakllanmagan. Odatda kuzatuv jarayoni ko'proq og'zaki xotira, tajriba va sezgi bilan bog'liq [22]. Reggio yondashuvida kuzatuv va hujjatlashtirish — ta'lim jarayonining ko'rinarliligi, pedagog refleksiyasi va bola fikrining rivojini aks ettiruvchi asosiy metod [9;10;11]. Reggio hujjatlashtirish amaliyotini o'zbek pedagoglarining intuitiv kuzatuvi bilan integratsiya qilish — ilmiy asoslangan, tizimli nazorat mexanizmini yaratishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning milliy an'anaviy tarbiyasi va Reggio uyg'unligi kuchli axloqiy poydevor yaratadi va pedagogik innovatsiya va ijodkorlik madaniyatini olib kiradi. Integratsiya madaniy jihatdan moslashgan bolaga yo'naltirilgan ta'lim, mahalla qadriyatlariga tayangan estetik ta'lim muhiti, ijodkorlik va axloqiy tarbiya uyg'unligi, SELning madaniy va konstruktiv komponentlarini birlashtirish, ustoz-shogirdlikning fassilitativ shakliga o'tish imkoniyatlarini beradi:

Milliy tarbiya — ijtimoiy barqarorlik, axloqiy komillik va jamoaviylikni shakllantiruvchi tizimdir. Reggio Emilia yondashuvi — ijodiy fikrlash, mustaqil o'rganish va multimodal ifoda imkoniyatini beruvchi metodologiya. Ularning uyg'unlashuvi: **ijodiy + axloqiy, jamoaviy + individual, intuitiv + ilmiy, an'anaviy + innovatsion** ta'lim strukturasi yaratadi. Bu O'zbekiston sharoiti uchun yangi, milliy gibridd pedagogik modelni yaratishga asos bo'ladi. Bunda madaniy jihatdan asoslangan, global metodologiyalar bilan uyg'unlashgan, milliy pedagogik model shakllanishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2012). *The Hundred Languages of Children*. Praeger.
2. Rinaldi, C. (2006). *In Dialogue with Reggio Emilia*. Routledge.
3. Vecchi, V. (2010). *Art and Creativity in Reggio Emilia*. Routledge.
4. Malaguzzi, L. (1993). For an Education Based on Relationships. *Young Children*, 49(1), 9–12.
5. Project Zero & Reggio Children. (2001). *Making Learning Visible*. Harvard.
6. Brackett, M. (2019). *Permission to Feel*. Celadon.
7. Immordino-Yang, M. H. (2016). *Emotions, Learning, and the Brain*. Norton.
8. Rogoff, B. (2003). *The Cultural Nature of Human Development*. Oxford University Press.
9. Fabbi, C. (2016). *Participation, Learning and Co-responsibility*. Reggio Children.
10. Fabbi, C. (2018). *Educational Documentation as a Tool for Professional Growth*. Reggio Children.
11. Fabbi, C. (2019). *Learning and Relationships*. Reggio Children.
12. Fabbi, C. (2020). *Schools as Research Communities*. Reggio Publications.
13. Fabbi, C., & Rinaldi, C. (2021). *The Visibility of Learning*. Reggio Children.

18. Avloniy, A. (1913/1992). *Turkiy Guliston yo Haxloq*. Ma'naviyat.
19. Fitrat, A. (1924/1995). *Oila*. Sharq.
20. Qodirov, N. (2008). *O'zbek Xalq Pedagogikasi*. TDPU.
21. Sulstonov, K. (2009). Mahalla va Tarbiya. *Ijtimoiy Hayot*, 4, 12–18.
22. Sharipova, Z. (2015). Milliy Tarbiya Konsepsiyasi. *Pedagogika*, 3(2), 44–51.